



O'QITUVCHI NAZOKATIDA DILKASHLIK VA PEDAGOGIK TAKT

Toshkent xalqaro

moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Egamqulova Malikabonu Elyor qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy

boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

G'aniyeva Nargiza Alijonovna

Annotatsiya: Mazkur jarayonda o'qituvchi nazokatining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan dilkashlik va pedagogik taktning mazmuni hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda dilkashlik hamda pedagogik taktning o'rni tahlil qilinadi. Ushbu mavzu pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, ijobiy psixologik muhit yaratish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi omillarni ochib beradi. O'qituvchining muomala madaniyati, odob-axloqi, o'quvchilar bilan samimiy va hurmatga asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik taktning ta'lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish, nizolarni bartaraf etish va qulay psixologik muhitni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Mavzu pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan yoritilgan.



Kalit so'zlar: o'qituvchi nazokati, dilkashlik, pedagogik takt, pedagogik mahorat, muomala madaniyati, pedagogik muloqot, kasbiy kompetensiya, ta'lim jarayoni, tarbiya, psixologik muhit, o'quvchi, kasbiy etika.

Kirish: Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan **dilkashlik** insonning atrofidagi odamlar bilan barqaror va yaqin munosabatlar o'rnatishga intilishi sifatida ta'riflanadi. Bu intilish o'qituvchining o'quvchilar hamda atrofidagi insonlar bilan tez va samarali aloqa o'rnatishiga, belgilangan maqsadlarga erishishiga yordam beradi. Albatta, bunday jarayon birdaniga yuz bermaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilardan psixologik bilimga ega bo'lish, insonlar

bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik va muomala madaniyatiga rioya etish talab etiladi.

Asosiy qism: Psixologlarning ta'kidlashicha, o'qituvchining dilkashlik xususiyati ikki toifadagi shaxslar xarakterida mujassamlashgan bo'ladi.

Birinchisi — ekstrovert shaxslar. Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin bo'lib, odamlar bilan tez muloqotga kirishadi, tashqi muhit va atrofda gilar bilan munosabat o'rnatishga moyil bo'ladilar.

Ikkinchisi — introvert shaxslar. Ular ko'proq o'z ichki olamiga berilgan, atrofidagi odamlar bilan kam muloqot qiladigan, o'zini o'zi nazorat qilishga hamda ichki xavotir va kechinmalarga moyil bo'lgan kishilardir.

Pedagog olimlarning ta'kidlashicha, o'qituvchining dilkashligi ekstrovert va introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs sifatlarining uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Biroq, pedagogikada ko'pincha ekstrovert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etiladi. O'qituvchida ushbu fazilatlarining mavjud bo'lishi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilgan holda dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik



mahoratini takomillashtirishning muhim asosi va sharti hisoblanadi. Kasbiy faoliyatida doimo dilkashlikni namoyon etadigan o'qituvchi quyidagi jihatlarni doimo yodda tutishi kerak:

- O'quvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida yondasha bilishi;
- Hech bir o'quvchining yomon bo'lishi yoki uning hurmat-e'tiborini qozonib bo'lmashligiga ishonmasligi, aksincha, har bir o'quvchida ijobiy jihatlarni mavjudligini anglay olishi;
- Biror o'quvchiga nisbatan ishonchsizlik yoki salbiy munosabat sinf jamoasi bilan o'zaro yaxshi munosabatlarni shakllantirishga to'sqinlik qilishini bilishi;
- O'quvchilar bilan muloqot jarayonida haddan tashqari masofa (subordinatsiya) saqlash mumkin emasligini tushunishi;
- Sinf jamoasida yuz beradigan kulgili vaziyatlarda o'qituvchining haddan tashqari jiddiy va qat'iy bo'lishi jamoadagi noqulay holatni yanada murakkablashtirib yuborishini unutmasligi;
- Har bir o'quvchiga beriladigan xolis va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlovchi ko'priklarni ekanligini yodda tutishi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida dilkashlik fazilati o'quvchilar jamoasi bilan samimiy, faol va muvaffaqiyatli muloqotga kirisha olishida namoyon bo'ladi.

Rus olimi A.V. Mudrik o'z ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchining xushmuomalalik bilan muloqotga kirishishi va bu ko'nikmani shakllantirish qobiliyatini belgilovchi quyidagi mezonlarni ajratib ko'rsatadi:

- inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi;



- notqlik san'atini mukammal egallaganlik yoki nutqda erkinlik;
- xushmuomalalik va shirinsuxanlik;
- empatiya (boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olish) hamda tezkor fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish;
- muayyan maqsadga yo'naltirilgan aniq ijtimoiy munosabatlarni shakllantira olish.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar va demokratik xarakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni erkin hamda mustaqil fikrlashga, ongli intizomga o'rgatish, ularni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash o'qituvchidan chuqur bilim, kasbiy malaka va ko'nikmalar, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab etadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining dilkashligi, xushmuomalaligi va pedagogik takti uning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi fazilatlardan biridir. O'qituvchi o'quvchilar bilan samimiy, hurmat va ishonchga asoslangan munosabat o'rnatish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Dildan muloqot qilish, har bir o'quvchiga individual yondashish, adolatli baholash va pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilish o'qituvchining pedagogik mahoratini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shuningdek, o'qituvchining ekstrovert yoki introvert xususiyatlari uyg'unligi, nutq madaniyati, empatiya qobiliyati, xushmuomalalik va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri shakllantira olish ko'nikmalari uning o'quvchilar bilan samarali muloqotga kirishishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchidan nafaqat chuqur bilim, balki yuksak axloqiy fazilatlar, pedagogik takt va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan kasbiy yondashuv ham talab etiladi. Ana shunday sifatlar orqali o'qituvchi sog'lom psixologik muhit yaratib, o'quvchilarning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonining



samaradorligi nafaqat o'qituvchining fan bo'yicha bilim darajasi, balki uning o'quvchilar bilan to'g'ri, maqsadga yo'naltirilgan va insonparvar munosabat o'rnatish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. O'qituvchi shaxsida shakllangan dilkashlik xususiyati o'quvchilar bilan tez va samarali aloqa o'rnatish, ularning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish imkonini beradi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining ekstrovert va introvert xususiyatlari ma'lum darajada namoyon bo'lib, ularning uyg'unligi samarali pedagogik muloqotni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ekstrovert xususiyatlarga ega bo'lgan o'qituvchilarda ochiqlik, tashabbuskorlik, muloqotga kirishuvchanlik kabi sifatlar ko'proq namoyon bo'lsa, introvert xususiyatlar esa vaziyatni chuqur tahlil qilish, o'zini nazorat qilish va pedagogik qarorlarni puxta o'ylab qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli, o'qituvchin shaxsiy sifatleri muvozanatli rivojlangan bo'lishi uning pedagogik mahoratini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida pedagogik takt alohida o'rin tutadi. Pedagogik takt o'qituvchining har bir vaziyatda to'g'ri qaror qabul qila olishi, o'quvchi shaxsiga hurmat bilan yondashishi, talabchanlik va mehribonlikni uyg'unlashtira bilishi bilan tavsiflanadi. O'quvchilarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, ularning qadr-qimmatini hurmat qilish, ishonchli muloqot muhitini shakllantirish pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlaydi. Shuningdek, A.V. Mudrik tomonidan ajratib ko'rsatilgan xushmuomalalik, nutq erkinligi, empatiya, tezkor fikrlash va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish qobiliyatlari o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim mezonlar hisoblanadi. Ushbu sifatlar o'qituvchiga o'quvchilar jamoasi bilan samarali hamkorlik qilish, turli pedagogik vaziyatlarni oqilona hal etish va ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.



Demak, zamonaviy o'qituvchi nafaqat chuqur bilim va kasbiy malakaga ega mutaxassis, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini namoyon etuvchi, o'quvchi shaxsini qadrlaydigan va demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritadigan pedagog bo'lishi lozim. Dildashlik, pedagogik takt va muloqot madaniyatining rivojlanganligi o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
3. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Holiqberdiyev K.M. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Podlasiy I.P. Pedagogika. – Moskva: Vldos, 2007.
5. Slastyonin V.A., Isayev I.F., Shiyanov E.N. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2013.
6. Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2007.
7. Kan-Kalik V.A. Uchitelyu o pedagogicheskom obshchenii. – Moskva: Prosveshcheniye, 1987.
8. Leontev A.A. Pedagogicheskoe obshchenie. – Moskva: Znaniye, 1979.